

## KASHANDALIK – DAVR VABOSI

*Jamoat xavfsizligi universiteti**Kursant - To‘xtamurodov Muhriddin Bahriiddin o‘g‘li.**Ilmiy rahbar: DSc, prof. Sabohat Hashimova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali ertangi kunni tayanchi bo‘lgan yoshlarimiz oxiri yo‘q, o‘zini-o‘zi tubanlik botqog‘iga botirish bo‘lgan kashandalikning ayanchli oqibatlari va u keltirayotgan illatlarga qarshi chiquvchi ko‘plab qonunlar xususida so‘z boradi. Ushbu qonunlarni ijrosini ta‘minlash har bir insonning oldidagi ulkan xususida gap boradi.

**Kalit so‘zlar:** Kashandalik, illat, globallashuv, тамаки, алкоголь, Иммунитет.

Insoniyat bugungi kunda globallashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda nafaqat ijobiy o‘zgarishlar, balki salbiy o‘zgarishlarga xam ko‘zimiz tushishi muqarrar. Ayniqsa, bugunning yoshlari bir tomonidan saloxiyat jixatdan ustun bo‘lsa, ikkinchi tomonidan esa zararli odatlarga tez o‘rganishga moyil, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuni takidlab o‘tish joizki, yosh avlod zararli odatlar yomon oqibatlarga olib kelishi haqida etarli ma’lumotga ega bo‘lsa ham, o‘zini yonib turgan olovga tashlayotganligi achinarli hol. Kundan kun rivojlanib borayotgan tibbiyat soxasida zararli odatlarning salbiy oqibatlari haqida etarlicha ma’lumot bor. Ulardan biri-chekish hamda uning inson salomatligi uchun qay darajada xavfli ekanligi haqida to‘xtalib o‘tmochiman.

Toshkent Tibbiyat Akademiyasi izlanishlari natijalariga ko‘ra, nikotinni kam dozada iste’mol qilish holatida ham quyidagi nuqsonlarni keltirib chiqarishini isbotlashdi:

- 1) O‘pka va boshqa organlar saratoni paydo bo‘lishi xavfini oshiradi;
- 2) Ham erkaklar va ham ayollarda reproduktiv funksiyalarni buzadi;
- 3) Umumiy salomatlikni yomonlashtiradi;
- 4) Immunitetni zaiflashtiradi;
- 5) Qon tomirlarini toraytirishi oqibatida, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Barchamizga ma’lumki, chekish-tug‘ma odat emas, ushbu salbiy odat maqsadli ravishda o‘zlashtiriladi. Uning qanday oqibatlarga olib kelishini bilgan holda, yoshlarimiz kashandalikka ruju qo‘yishmoqda.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda kashandalik oqibatida har yili 5,4 million, har 6 soniyada 1 kishi hayotdan ko‘z yumadi. Mutaxassislarining fikricha, zudlik bilan zarur choralar ko‘rilmasa, 2030 yilga borib kashandalik har yili 8 million kishining hayotdan bevaqt ko‘z yumishiga sabab bo‘ladi. Dunyoda chekuvchilar soni

bo'yicha birinchi o'rinda Xitoy, keyin Hindiston va Indoneziya turadi. Chekish oqibatida kelib chiqadigan yillik iqtisodiy zarar 200 milliard AQSH dollaridan oshib ketmoqda [6].

E'tibor bersangiz, chekish nafakat inson salomatligiga, balki moliyaviy axvoliga ham putur etkazishi mumkin. Bu illatdan forig' bo'lish maqsadida, ko'plab salmoqli ishlar olib borilmokda. Bu esa albatta kuvonarlidir. 31 may – Butun jaxonda chekishga qarshi kurash kuni ekanligi xam fikrimiz isbotidir. Xattoki, bir kun davomida bir donadan sigareta chekayotgan shaxslar xam chekuvchi hisoblanadilar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tamaki va uning tutuni tarkibida odam organizmiga zararli ta'sir etuvchi 400 dan ortiq har xil birikmalar bo'lib, ulardan eng zaharlisi nikotin, is gazi va shularga o'xshash ko'pgina zararli moddalardir. Nikotin – eng kuchli zaharlardan biri. O'pka to'qimasiga kirgan nikotin 7 sekunddan keyin bosh miyaga etib boradi. Inson uchun nikotinning o'lim dozasi 50-100 mg yoki 2-3 tomchi. Aynan shunday doza har kuni qonga 20-25 ta sigaret chekkandan keyin tushadi. Bir kunda 1 quti sigaret chekish – bu 1 yilda 500 rentgen nurlanishni olgan bilan barobar.

Tibbiyot tadqiqotlari natijalariga ko'ra, tamaki yurak – qon tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish, asab, ichki sekretsiya, jinsiy bezlar kabi a'zolariga zaharli ta'sir qilib miokard infarkti, xafaqon kasalligi, bronxlarning surunkali yallig'lanishi, yara va saraton singari ko'pgina xavfli kasalliklarga sabab bo'ladi. [6]. Shuningdek, tamaki nasnga ham salbiy ta'sir qilib, farzandsizlikka, tug'iladigan bolalarni zaif, nogiron, jismoniy nuqsonlar bilan tug'ilishiga sabab bo'ladi. Bu esa nasllar davomiyligiga o'zining salbiy tasirini ko'rsatmay qo'ymaydi. Mamlakatimizda kashandalik va illatlarga qarshi chiquvchi ko'plab qonunlar tasdiqlangan. Ulardan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolar, xususan yoshlar sog'ligini, jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Hozirgi vaqtda tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish va tarqatishni cheklash "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda istemol qilinishini cheklash to'g'risida" gi qonun va boshqa shu kabi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan.

Mazkur qonunda tamaki mahsulotlarini balog'at yoshiga etmagan shaxslarga sotishni taqiqlash, tamaki va alkogol mahsulotlarining inson salomatligiga salbiy ta'siri to'g'risidagi ogohlantiruvchi yozuvning bo'lishi, bunday mahsulotlarda inson sog'lig'i va hayotiga zararlilik darajasiga ruxsat beruvchi normaning kiritilishi, tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni reklama va targ'ibot qilishga yo'l qo'ymaslik, jamoat joylarida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni taqiqlash to'g'risidagi talablar mavjud. Shuningdek, "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida" gi Kodeks tamaki mahsulotlarini jamoat va transportning ruxsat etilmagan joylarida iste'mol qilishni man etadi [1].

“Reklama to‘g‘risida” gi qonun tamaki va tamaki mahsulotlarini reklama qilishni taqiqlaydi. Kelajagimiz uchun daxldor qonun loyihasi aholi salomatligi, farzandlarimiz tarbiyasi va millat genofondi uchun muhim masalalarini hal etishda dolzarb ahamiyatga ega [2]. Shuningdek, “Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to‘g‘risida” gi qonunning 12-moddasiga binoan: “Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi” [4].

Sir emaski, ushbu illat domiga tushayotganlarning aksariyatini balog‘at yoshidagilar tashkil kiladi. SHu boisdan ham, mamlakatimizda “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq barcha axborot mahsulotlarida yoshta oid toifasi belgisi qo‘yib borilishi kerak [3].

Shu bilan bir qatorda kino va seriallarning boshlanishida “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida” Qonun talabiga asosan alkogol va tamaki mahsulotlarining inson sog‘lig‘iga salbiy ta’siri to‘g‘risidagi ogohlantiruvchi yozuv joylashtirilishi belgilangan. Albatta, bu qoidalar televidenie orqali namoyish etilayotgan kinofilm va seriallarda o‘z aksini topmoqda. Birok, guruch kurmaksiz bo‘lmagani kabi, chekish bilan bog‘lik saxnanalarni ochiq-oydin namoyish qilayotgan kimsalar xam yo‘q emas [1].

Jahon tajribasidan aytadigan bo‘lsak, tamaki mahsulotini chekish bilan bog‘liq sahnalar qo‘yilganida millionlab o‘siprin yoshlar orasida chekish holatlari ko‘payib ketgan. SHundan so‘ng Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish departamenti direktori- D-r Duglas Bettcher filmlarda tamaki iste’mol qilish (checkish) sahnalari namoyish etilishi juda kuchli ta’sir qiluvchi tamaki mahsulotlari reklamasi ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Internet ma’lumotlariga kura, Amerika Qo‘shma SHtatlaridagi tadqiqotlardan biri shuni ko‘rsatadiki, birinchi marta chekishni boshlagan o‘siprin yoshlarning 37 foizi buni ekrandagi chekish sahnalari ta’siri ostida qilgan. 2014 yilda AQSH Kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazlarining hisob-kitobiga ko‘ra, mazkur mamlakkatning o‘zida ekrandagi chekish sahnalari ta’siri ostida 6 milliondan ortiq o‘siprin yoshlar chekishni boshlagan. Achinarlisi, ulardan 2 millioni keyinchalik tamaki iste’mol qilganligi natijasida kelib chiqadigan kasallikdan vafot etgan. Masalan, 2011 yilda Buyuk Britaniya va SHimoliy Irlandiyada 5000 dan ortiq o‘siprin ishtirokida tadqiqot o‘tkazilgan. Tadqiqotda filmlarda chekish sahnalari ta’siri ostida tamakiga o‘rgangan 15 yoshli o‘siprinlar va ekrandagi chekish sahnalarini umuman ko‘rmagan tengqurlariga nisbatan chekish holati 73 foizga ortgan. AQSH, Kanada va Norvegiyada o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham shunday natijalar olingan.

O‘zbekiston Respublikasining 2011 yil 27 iyundagi “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi

Qonunning 18-moddasida "Alkogol va tamaki mahsulotlarini reklama qilishga yo'1 qo'yilmasligi, alkogol va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni targ'ib etish, ya'ni alkogol va tamaki mahsulotlari iste'mol qilishni rag'batlantiruvchi, shaxsda ularni iste'mol qilishning zararsizligi haqidagi tasavvurni shakllantiruvchi g'oyalar, qarashlar hamda badiiy obrazlarni oshkora yoki yashirin shaklda tarqatishga qaratilgan xatti-harakatlar taqiqlanishi belgilangan.Ushbu konun doirasida tamaki maxsulotlarini chekish bilan boglik saxnalar berkitilsa ,ommaga namoyish etilmasa maksadga muvofik bular edi.SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki,ushbu konunni buzish uchun javobgarlik belgilangan [1].

Bu kabi isloxtlarni sanab o'tsak, ular talaygina.Birok, qilinayotgan ishlarning soni emas , balki natijalar muximroq, albatta.SHu o'rinda quyidagilar amalga oshirilsa maqsadga muvofik bo'lar edi:

- Yoshlar o'rtasida kashandalik kabi salbiy odatlarga qarshi o'tkazilayotgan tadbirlarni ko'paytirish;
- "Tengdoshning tengdoshga ta'siri" tamoyili ostida zararli odatlarga moyilligi bor yoshlar bilan tengdoshlari yordamida ishslash;
- "No smoking" shiori ostidagi logotiplarni ko'paytirish;
- Nafaqat yoshlar , balki ularning ota-onalari o'rtasida ham targ'ibot-tashqiqot ishlarini olib borish.

Agar ushbu tadbirlar amalga oshirilsa, chekuvchilar soni kamayishi mukarrar. Xulosa qilib aytganda, bizning vazifamizda amalga oshirilayotgan islohatlardan ko'rinish turibdiki yoshlarga e'tibor ertangi kunga e'tibor ekanligi yaqqol nomoyon bo'lmoqda. Bu esa bizga yaratib berilatotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, chuqur bilim egallab vatan ravnaqi uchun xissa qo'shadigan tayanch bo'lib xizmat qiladi. Buning yaqqol misoli mamlakatimizning rivojlanishi qonun ustuvorligini taminlashda o'z xissamizni qo'shishda o'z aksini topadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

- 1) Karimov.I.A."Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida" gi qonun. – T., 2018.
- 2) Mirziyoev.SH.M."Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida" gi qonun. – T., 2017.
- 3) Mirziyoev.SH.M. "Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to'g'risida" gi qonun. – T., 2018.
- 4) Axmedov.A. "Tamaki maxsulotlari reklamasiga qo'yilgan cheklovlar". – T., 2020.
- 5) Mirzaeva.G."Chekish-bu zarali odat". - Toshkent Tibbiyot akademiyasi.
- 6) Абдусамадов К., С Хашимова. КАШАНДАЛИК ВА УНГА ҚҰЙИЛГАН КОНУНИЙ ЧЕКЛОВЛАР. О'zbekistonda FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – Т., 2022. – В. 465-468.